Xalqimiz har qanday og’ir damlarda ham rahmdillik, mehmondo’stlik, bag’rikenglik an’analarga sodiq qoldi

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi “Ikkinchi jahon urushida qozonilgan G’alabaning 75 yilligini nishonlash to’g’risida”gi PQ-4495-sonli qarorida xalqimizning urush yillarida ko’rsatgan mardlik va matonati, yuksak insoniy fazilatlarini, qahramon ajdodlarimizning nomlari, shonli an’ana va qadriyatlarini abadiylashtirishga alohida urg’u berildi.

Vaqtlar, davrlar o’tsada, xalqlar hayotida sodir bo’lgan har qanday voqeliklar tarix sahifalarida muhrlanib qolaveradi. Ikkinchi jahon urushi insoniyat boshiga ko’plab talofatlar va ayriliqlarni olib keldi. Millionlab odamlarni boshpanasiz qoldirdi. Garchi front yerlaridan uzoqda bo’lsa-da O’zbekiston urushning barcha qiyinchiliklarini boshidan o’tkazdi. Urush yillari o’zbek xalqi uchun eng og’ir va kuchli sinov davri sifatida tarixga muhrlandi. Xalqimizning asosiy ma’naviy-ahloqiy xususiyatlari, insonparvarligi aynan shu yillarda yorqin namoyon bo’ldi.

Urushning dastlabki kunlaridanoq o’z uy-joylarini majburan tashlab o’zga yurtlarga ketayotgan aholi uchun O’zbekiston ikkinchi vatanga aylandi. Yurtimiz bu yillarda bir milliondan ortiq aholini o’z bag’riga oldi. O’zbekiston hududida urush yillarida evakuatsiya qilingan korxonalar va aholi joylashtirildi. Evakuatsiya qilingan aholi bilan ishlash uchun katta kuch g’ayrat sarflash zarur edi. Respublikada evakosovet (evakuatsiya qilinganlar bilan shug’ullanuvchi tashkilot) tuzildi. Ular evakuatsiya qilingan aholining joylashtirish, ovqatlanishini tashkillashtirish, tibbiy yordam ko’rsatish masalalari bilan shug’ullandilar. Ko’chirilganlarning asosiy qismiga mahalliy aholining uylaridan joy ajratildi. Bu juda katta kuch talab etar edi. Masalan, birgina, o’sha davrda 653 ming aholisi bo’lgan Andijon viloyatiga 100 mingdan ortiq aholi, shulardan 10000 bolalar joylashtirildi. Bu raqam Andijonda har bir 5 kishilik oila 1tadan odamni qabul qildi, degani edi. Butun O’zbekiston ahli evakuatsiya qilingan xalqlarga o’z mehr-muruvvatini ayamadi. Ularning ko’pchiligi urush tugagandan keyin ham O’zbekiston xalqini bu g’amho’rligini uzoq yillar xotirasidan chiqarmadi.

Frontga ketganlarning o’rnini to’ldirish, evakuatsiya qilingan zavod va fabrikalarni tiklashda uy bekalari, xizmatchilar va kolxozchilar, talaba va o’quvchi yoshlar ham mehnat qildilar.

Ayniqsa, O’zbekistonga evakuatsiya qilingan 200 mingdan ortiq bolalarga bo’lgan o’zbek xalqining munosabatiga darhaqiqat tarixiy jasorat sifatida qarash lozim. Chunki har bir oilalarga qabul qilingan bolalarga o’z farzandidek tarbiyasidan tortib sog’lig’igacha qilingan e’tibor xalqimizning bolajonligidan, inson taqdiriga befarq emasligidan dalolat edi. O’zbekistonga yuzlab bolalar uylari ko’chirtirildi.

Bolalar uylaridan tashqari bebosh, yolg’iz bolalar ham turli yo’llar bilan O’zbekistonga kirib kelgan va ularni hisobga olish, joylashtirish masalalari bilan o’qituvchilar, militsiya xodimlari shug’ullangan.

Ikkinchi jahon urushi haqida so’z ketganda, uning eng og’ir yuki xotin-qizlar zimmasiga tushganini qayd etish darkor. Qiyin va qaltis zamonda ayollarning nozik yelkasi hatto erkaklarga murakkablik tug’dirgan vazifalarni ko’tarishga majbur bo’ldi. Bunday taqdir o’zbekistonlik xotin-qizlarni ham chetlab o’tmadi. Ular bu yillarda “erkaklar kasbi” bo’lgan stanoklar oldiga turdilar, traktorlar boshqardilar, temir yo’l, qurilish maydonlarida faollashdilar. Ayollarning ishlab chiqarishda o’z kuchlarini ayamay davlat tomonidan “qat’iy qo’yilgan” rejalarni ortig’i bilan bajarishlarini ularning fashizm ustidan g’alabaga qo’shgan cheksiz hissasi deb baholash mumkin.

Ikkinchi jahon urushidagi O’zbekiston xotin-qizlari jasoratini Halima Nosirova, Tamaraxonim, Gavhar Rahimova, Lutfixonim Sarimsoqova timsollarida ko’rishimiz mumkin. O’zbekistonda tuzilgan musiqiy brigadalar tarkibidagi bu san’atkor ayollar front oldiga borib, jangchilarga o’z san’atlarini namoyish etganlar va ularning madaniy hordiqlarini ta’minlaganlar. Ular o’z hayotlarini tahlikaga qo’yib, harbiy

qismlarda kontsert dasturlarini taqdim qildilar. Urush yillarida Tamaraxonim boshchiligidagi ansaml Kavkaz, Eron, Uzoq Sharq, Mongoliya, Avstriya, Vengriya kabi davlatlarda safarda bo'lib qaytgan edi. Ko'rsatgan jasoratlari uchun Tamaraxonim Armiya kapitani unvoni va bir qator orden, medallar bilan taqdirlangan edi.

O'zbekistonda malakali kadrlar, qurilish materiallari va oziq-ovqat yetishmay turgan bir sharoitda Rossiya, Ukraina, Belorussiya, Boltiqbo'yi xalq xo'jaligini tiklash, vayronaga aylangan shahar va qishloqlarni qayta qurish ishlarida ishtirok etdi. Urush yillaridagi og'ir vaziyatlarda ham o'zbek xalqining ma'suliyatliligi turli yo'nalishlardagi barcha topshiriqlarni og'ishmay bajarishga harakat qilganligida namoyon bo'ldi.

Urush har bir xonadonga, har bir oilaga kirib keldi. Umumiy musibat millatlar va xalqlarni birlashtirdi. Ularni bir biriga bag'rikeng munosabatini kuchaytirdi. Moddiy ahvoli og'ir bo'lishiga qaramay o'zbekistonliklar front oldi hududlari aholisiga g'amxo'rlik ko'rsatdi. Barchaning yagona intilishi urushda fashizm ustidan g'alaba qozonishga qaratilgan edi. O'sha davrdagi kuchli davlat va mafkuraviy tazyiqlarga qaramay, xalqimiz o'zining milliy xususiyatlariga xos bo'lgan kim bo'lmasin og'ir damda qo'llab-quvvatlash, rahmdillik, mehmondo'stlik, bag'rikenglik an'analarga sodiq qoldi.

Nodira Mustafayeva,

O'zR FA Ijtimoiy gumanitar fanlar bo'limi rahbar, t.f.d.